

O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA TIMSS TADQIQOTINING AHAMIYATI.

JDPI "Biologiya o'qitish metodikasi"

kafedrasi mudiri- b.f.f.d(PhD) D. Azimova

JDPI magistri- H. Saidahmedova

Annotasiya. Bu tadqiqot orqali uzluksiz ta'limning mamlakatimiz ta'lim tizimining samaradorligini kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu dasturlar O'zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy baholash tizimini joriy qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlar, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, taraqqiyot tashkiloti (OECD)*

Аннотация. Данное исследование позволяет отслеживать эффективность непрерывного образования в системе образования нашей страны. Данные программы служат повышению качества образования за счет совершенствования национальной системы оценивания Республики Узбекистан, внедрения системы оценки компетенций.

Ключевые слова: *PIRLS, TIMSS, PISA и TALIS International Research, Организация экономического сотрудничества и развития (ОЭСР)*

Annotation. This study allows us to monitor the effectiveness of continuing education in the education system of our country. These programs serve to improve the quality of education through the improvement of the national assessment system of the Republic of Uzbekistan, the introduction of a system of competency assessment.

Key words: *PIRLS, TIMSS, PISA and TALIS International Research, Economic Cooperation Organization, Organization for Development (OECD)*

O'zbekiston mustaqillikga erishgandan buyon yurtimizda barcha sohada juda katta o'zgarishlar bo'lmoqda, jumladan ta'lim sohasida ham xavas, qilsa arzigulik natijalarga erishib kelmoqdamiz. Bularning barchasi sobiq birinchi prezidentimiz Islom Karimov va hozirda amaldagi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi, qo'llab quvvatlashi va eng asosiysi sharoitlar yaratib berayotganligida va albatta yoshlarga katta ishonch bildirganligidadir.

O'quvchilarning yutuqlari o'qituvchilarning mahoratiga bog'liq. O'quvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi ta'lim sifati darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o'qituvchilar o'rta yil o'qituvchisi nominatsiyasi, o'quvchilar o'rtasida bilimlar bellashuvi, olimpiadalar o'tkaziladi. O'quv yili davomida har bir ta'lim muassasasida ichki va tashqi monitoring o'tkazib boriladi, va natijasiga ko'ra, eng namunali maktablar ketma-ketligi aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [1] qarori asosida PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarini O'zbekistonda joriy etilishi belgilab qo'yilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarni joriy etish maqsadida Ta'lim sifati nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifati baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilgan.

Mazkur xalqaro baholash dasturlari va ular doirasidagi tadqiqotlar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan muayyan davriylik asosida dunyo mamlakatlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

O'zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash, o'z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Shu maqsadda O'zbekiston ham TIMSS-2023 xalqaro dasturida qatnashishga kirishdi. Bu borada IEA tashkilotining "Xalqaro matematik va ilmiy tadqiqotlar

(TIMSS) 2023 tendensiyalarida qatnashish uchun rasmiy taklifi”ga muvofiq O‘zbekistonning TIMSS dasturida ilk marotaba qatnashishi masalasida Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi o‘rtasida olib borilgan muloqotlar asosida IEA rahbariyatining dastlabki roziligiga erishildi.

IEA rahbariyati O‘zbekistonning ushbu tadqiqotda qatnashishidan mamnun ekanligini aytib, O‘zbekistonning ta’lim sharoitiga TIMSSning qaysi turi mos kelishi haqida maslahatlar berdi.

TIMSS (Trends in International mathematics and science study) 4- va 8- sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash dasturi bo‘lib, bu tadqiqot to‘rt yilda bir marta o‘tkaziladi.

TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo‘shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, ta’lim muassasasining imkoniyatlari, o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchilarning oilalari bilan bog‘liq omillari o‘rganiladi.

TIMSS dasturi o‘zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo‘lib, 2019-yilga qadar har to‘rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi [2].

Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Dasturning 24yillik faoliyati davomida unga qatnashayotgan davlatlar soni ham tobora ortib bormoqda, jumladan 2015-yildagi TIMSS tadqiqotida 57 ta mamlakat qatnashgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich ortib, 60 dan ortiq davlatni tashkil etganida ham ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston ham 8-davriylikda yuqori natijaga erishib chet davlatlarda oldingi o‘rinlarda turish niyatida matematika va tabiiy fanlarga e‘tiborni anchayin kuchaytirdi, zero prezident maktablariga imtihon matematika va chet tillaridan bo‘lganligi va bu maktabga eng salohiyatli, o‘ta bilimli, malakali kadrlarni saralab olinishi so‘zimiz isboti desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Tadqiqotning har to‘rt yillik davriyligida uzluksiz ravishda ishtirok etish global miqyosda mamlakatimiz ta’lim tizimining samaradorligini kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu dasturlar O‘zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy baholash tizimini joriy qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING 8.12.2018 YILDAGI 997-SONLI QARORI.
2. <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-khalqaro-timss-tadqiqotida-rasman-qatnashishga-kirishdi>.
3. Пентин П.А., Ковалева Г.С “Состояние естественно-научного образования в российской школе по результатам международных исследований TIMSS и PISA”, –М.: 2018.
4. <https://www.youtube.com/channel/UC-1vwenEymZJFxLWyEsGyTA> .